


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**09.00.02 – ONG, MADANIYAT VA AMALIYOT SHAKLLARI FALSAFASI
IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH
SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2024

Annotatsiya:

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni ilmiy-pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishning tarkibiy qismidir. Inson ongi va madaniyati, axloqiy-estetik mohiyatini chuqur anglash yuksak malakani shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayni paytda bu jarayon ong, madaniyat, amaliyot shakllari bo'lmish etika, estetika, dinshunoslik fanining metodologik asoslari hamda ilmiy mazmunini milliy va umuminsoniy tamoyillar bilan mushtarakligini ta'minlashni talab etadi.

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi ixtisosligi bo'yicha tuzilgan doktoranturaga kirish dasturi falsafa fanining keng tarmoqlararo sohalarini qamrab olib, ilmiy xodimni yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun eng muhim bilimlarni o'z ichiga oladi. Imtixon topshiruvchi tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, madaniy, axloqiy, estetik, diniy bilimlarni egallash orqali jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashishi lozim. Mazkur dastur ong, madaniyat, etika, estetika va dinning nazariy va amaliy xususiyatlarini anglab etishida doktorantlar uchun o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasiga oid bilimlarning zamonaviy ustuvor yo'nalishlari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Tuzuvchilar:

Samadov A.R.	–	SamDU, Falsafa va milliy g'oya kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori, professor
Ergasheva M.X.	–	SamDU, Falsafa va milliy g'oya kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori
Jo'rayev L.N.	–	SamDU, Falsafa va milliy g'oya kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori

Dastur Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakultetining 2024-yil 30-avgustdagi 1-sonli Kengash yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsia etilgan.

KIRISH

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni ilmiy-pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishning tarkibiy qismidir. Inson ongi va madaniyati, axloqiy-estetik mohiyatini chuqur anglash yuksak malakani shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayni paytda bu jarayon ong, madaniyat, amaliyot shakllari bo'lmish etika, estetika, dinshunoslik fanining metodologik asoslari hamda ilmiy mazmunini milliy va umuminsoniy tamoyillar bilan mushtarakligini ta'minlashni talab etadi.

Yangi O'zbekistonning "2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning etakchi davlatlari qatoriga kirishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi"¹. Yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlarni tayyorlashda inson ongi, madaniyat, uning kelib chiqishi, mohiyati, asosiy qonuniyatlari, kategoriyalari, funksiyalari, ularning o'zaro mutanosibligi va o'ziga xos xususiyatlari, madaniy makonning nazariy modellari, uning strukturaviy elementlarini o'rganishda amaliyot shakllari falsafasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Ongning strukturasi va namoyon bo'lish shakllari

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari. Falsafa tarixida inson borlig'iga munosabat. Inson ma'naviy borlig'i. Ongning tabiati. Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Ongning strukturasi va funksiyalari. Ijtimoiy jarayonlarda onglilik va ongsizlikning namoyon bo'lishi. Ongsizlikning tabiati. Individual ong borlig'i. Ijtimoiy ong borlig'i. Ratsionallik va irratsionalizm. Ong bosh miya funksiyasi sifatida. Ong falsafiy muammo sifatida. Ongning materialistik konsepsiyasi. Z.Freyd konsepsiyasi. Til va ong. O'zlikni anglash.

Jon va ruh inson mavjudligining asosi

Jon haqidagi falsafa. Ong va jonning tenglashtirilishi. Jon haqidagi ilk falsafiy tasavvurlar. Jon va ruh haqida. Gilozoizm ta'limoti. Jonning tanada paydo bo'lishi haqidagi ta'limot. O'rta asrlar falsafasida jon – dunyoviy va ilohiy faoliyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida. Jon va ruh haqida Ibn Sinoning qarashlari. Inson ruhi va joni to'g'risida kosmopolitik qarashlar.

Madaniyatning paydo bo'lishi va uning falsafiy mohiyati

Madaniyat tushunchasining paydo bo'lishi. "Madaniyat"ga berilgan ta'riflar. Madaniyat tushunchasining talqinlari. Madaniyatshunoslik fanining ijtimoiy gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Madaniyatshunoslik fanining nazariy va g'oyaviy asoslari. Madaniyatning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy, aksiologik va antropologik talqini. Madaniyatning inson ma'naviy qiyofasiga ta'siri. Madaniy munosabatlar va muloqotlar. Yangi O'zbekiston yo'li – yangi madaniyat tizimini shakllantiruvchi bosh omil. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev inson o'zgarsa jamiyat o'zgarishi to'g'risida. Madaniyatshunoslikning asosiy vazifalari: olamni o'zlashtirish va qayta o'zgartirish; himoya-moslashuv; signifikativ; axborotlarni yaratish va to'plash; kommunikativlik.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. О'zbekiston. 2021, 240-бет.

“Madaniyatshunoslik”ning ahamiyati: madaniyat mustaqilligi; jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi integratsiya.

Madaniyatning tarixiy tiplari va taraqqiyot bosqichlari

Madaniyat tarixi – insoniyat tarixining tarkibiy qismi. Madaniyatning ko‘rinishlari: milliy, mintaqaviy, umuminsoniy. Madaniyat va sivilizatsiya. Madaniyatga sivilizatsion yondoshuv. Mintaqaviy madaniyatlar. Madaniyatlar dialogi. Sharq va G‘arb madaniyatlarining o‘zaro ta’siri. Madaniyatga sivilizatsion yondoshuv. Dunyo madaniy taraqqiyotining tarixiy bosqichlari: ibtidoiy madaniyat; qadimgi davr madaniyati; antik madaniyatda hissiyot va aql, ijtimoiylik va individuallik uyg‘unligi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati; Islom madaniyati; O‘rta asr madaniyatining o‘ziga xosligi. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi, XV asr); XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo mintaqasi xalqlari madaniyati; modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI-XXI asrlar); mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat. Uyg‘onish davri madaniyati. Uyg‘onish davri Sharq va G‘arb madaniyatida gumanizm g‘oyasi. Yangi davr madaniyati. Yangi davr madaniyatida texnokratlashuv jarayoni. Yangi davr madaniyatida fan va bilimga munosabat. Sobiq Ittifoq davridagi o‘zbek madaniyati va unga kommunistik mafkuraning ta’siri. Mustaqillik davri o‘zbek madaniyatining o‘ziga xos ko‘rinishlari:

an’anaviylik va zamonaviylik. Madaniy transformatsiya.

Milliy-etnik madaniyat

Madaniyat va etnos. Xalq - etnik umumiylikning bosh shakli. Etnos - umumiy til va madaniyatni shakllantiruvchi omil. Etnik va milliy madaniyat. Etnos - etnogenetik va madaniy birlik. Etnik madaniyat eng qadimgi madaniyat shakli. Konservatizm, vorisiylik, madaniy ildizlarni saqlashga moyillik - etnik madaniyatning o‘ziga xos ko‘rinishi. Etnomadaniy stereotiplar: avtostereotiplar (o‘z xalqi madaniyati haqidagi fikr), geterestereotiplar (boshqa xalqlar madaniyati haqidagi fikr). Etnik madaniyat milliy madaniyatning boshlang‘ich asosi. Etnik madaniyatdagi begonalashuv. Etnik madaniyatning hozirgi zamonda namoyon bo‘lishi (muzeylardagi eksponatlar, turli qo‘shiq, kuylar). Etnomadaniyat milliy madaniyatning boshlang‘ich asosi. Millat - etnomadaniy birlik. Madaniyat va muloqot. Etnik va milliy madaniyatdagi farqlar va o‘zaro aloqadorlik. Fan, ta’lim, san’at ishlab chiqarishning rivojlanishi madaniy taraqqiyot kafolati. Millatlararo munosabatlar madaniyati. Meros - dunyo xalqlari uchun umuminsoniy mulk. Merosning tarixan o‘zgarib borishi. “Buyuk ipak yo‘li” madaniyati - O‘rta Osiyo madaniyatining uzviy qismi. Bu madaniyat Eron, Hindiston, O‘rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o‘zgartirishga sabab bo‘lgani. Me’morchilikka oid o‘tmishdagi va bugungi inshootlar, ularning tarixi, farqlari, o‘z davri uchun noyob hodisa ekani – madaniy taraqqiyotning muhim belgisi. Madaniy meros - insoniyatning o‘tmish bilan chambarchas bog‘liqligi natijasi. Madaniy merosning mexanizmi. Ma’naviy merosning uzviyligi. O‘tmishdan kelajakka o‘tish jarayonida merosning mazmunan o‘zgarishi.

Madaniyat rivojlanish qonunlari va faoliyat turlari

Madaniyatning turlari: moddiy madaniyat; ma'naviy madaniyat; moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro bog'liqligi. Insoniyat taraqqiyotida moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi. Ma'naviy faoliyat - moddiy madaniyat mahsuli sifatida. Din, san'at, huquq, siyosatning ma'naviy madaniyat shakllanishidagi roli. Moddiy madaniyat takomilida «buyuk industrial inqilob»ning o'rni. Axborot jamiyati madaniyati va uning ko'rinishlari: internet; televidenie; radio; matbuot. Moddiy madaniyatning ko'rinishlari. Moddiy madaniyat tarixiy jarayon sifatida. Ma'naviy madaniyatning shakllari. Madaniyatshunoslik fanining qonuniyatlari. Madaniy rivojlanishning tarixiy davr va bosqichlar bilan aloqadorligi qonuni. Madaniy amaliyotdagi inkor va vorislik qonuni.

“Madaniy faoliyat” tushunchasi va uning shakllari. Mehnat madaniyatining tarixiy rivojlanishi. Jismoniy va aqliy mehnat madaniyati. Boshqariladigan mehnat va uning shakllari: direktiv (faoliyatni bilmaydigan va bilishni xoxlamaydigan personal), o'rgatuvchi (faoliyatni bilmaydigan, lekin bilishni hoxlaydigan personal), stimulyativ (biluvchi, lekin hoxlamaydigan personal) delegirativ (biluvchi va xoxlovchi personal). Mutolaa madaniyati. Muomala madaniyati. Kundalik bilim egallashning madaniy asoslari. Maishiy turmush madaniyati. Xizmat ko'rsatish madaniyati. Sport –jismoniy madaniyatni shakllantirishning zamonaviy vositasi. Madaniyatning sohalar bo'yicha tasnifi; iqtisodiy madaniyat; siyosiy madaniyat; kasb mahorati madaniyati; pedagogik mahorat madaniyati; ekologik madaniyat. Madaniyatning ijtimoiy xarakteri. Iqtisodiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari. Axloqiy madaniyat: qadriyatlar, normalar, tamoyillar, ziddiyatlar. Ekologik madaniyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Huquqiy madaniyat – fuqarolik jamiyatining asosiy mezoni. Siyosiy madaniyat – davlat barqarorligi va fuqarolar farovonligining asosi. Davlat ramzlariga hurmat siyosiy madaniyatlik belgisi sifatida. Inson-tabiati tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish zarurati. Madaniyat funksiyalari: axborot, adaptiv, kommunikativ, integrativ, ijtimoiylashuv funksiyalari.

Madaniy taraqqiyot omillari, turlari va vositalari

Madaniyatning besh o'lchovli modellari: bilim, ta'lim-tarbiya, qadriyatlar, boshqaruv, til. Bilim inson madaniylashuvining bosh omili. Bilimning turlari: kundalik, mifologik, diniy, ilmiy, ijtimoiy, shaxsiy bilim qadriyatlarga munosabatni shakllantiruvchi mezon. Tarbiyaning madaniylashuv jarayonidagi roli. Ijtimoiy muhit va madaniy tarbiya uyg'unligi. Ta'lim va tarbiyaning madaniylashuvga ta'siri. Madaniy makonda qadriyatlarga munosabat. Boshqaruv madaniyatining o'ziga xos xususiyati. Boshqaruv madaniyatida rahbar va hodim munosabatlarining madaniy omillari. Til - madaniylashuv omili sifatida. Til va muloqot. Nutq madaniyati. Xalq tili shakllari: sheva, jargon, dialekt. Badiiy til. Individual nutq madaniyati. Verbal va noverbal, yozma va og'zaki nutq madaniyati. Vorisiylik, ijodkorlik, moslashuvchanlik, ijtimoiy muhit madaniylashuv omili sifatida. Madaniyat maskanlarining jamiyat madaniylashuviga ta'siri (kinoteatr, teatr, muzey, to'garak, va hokazo).

Madaniy taraqqiyotga ijtimoiy muhitning ta'siri. Madaniyatning shakllanishida inson omili. Madaniyat va iqtisodiy barqarorlik uyg'unligi. Madaniyat va erkinlik. Ijod - madaniyatni rivojlantirish vositasi. Ijod va madaniyat

mutanosibligi. Ijodning asosiy belgilari: ijod mahsullarining yangiligi va ijtimoiy ahamiyatliligi. Ijodiy tafakkurda mantiq va intuitsiya. Ijodiy faoliyatni tashkil qilishning ijtimoiy madaniy asoslari. Ijodni madaniy boshqarish. Jamiyatdagi islohotlarning ijodiy muhitga ta'siri. Madaniyatlararo munosabatlar. Madaniyatlararo umumiylik. Milliy mustaqillik va madaniyat. Madaniyat sohasidagi islohotlarda davlatning o'рни va ahamiyati. O'zbekistonda mustaqillik yillarida moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanish yo'nalishlari. Nomoddiy madaniyat obektlari – milliy madaniy meros sifatida. Jamoat birlashmalarining madaniy taraqqiyotdagi o'рни. O'zbekistonning xalqaro madaniy aloqalari. Madaniyat va shaxs. Shaxsning madaniyat bilan uzviyligi: ziyolilik; madaniyatlilik; tarbiyalilik.

An'anaviy madaniyatning xususiyatlari. Yangilik bilan murosasizlik - an'anaviy madaniyatga xos xususiyat sifatida. Innovatsion madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari. Innovatsion madaniyatda ishlab chiqarish va ehtiyoj uyg'unligi. XX – XXI asrda innovatsion madaniyat shakllanishining asosiy omillari. "Texnogen madaniyat": mohiyati, ko'rinishi, xususiyatlari. Texnogen madaniyatning boshqa madaniyat tiplari bilan aloqadorligi. Texnika - madaniy muhitni yaratish vositasi sifatida. Axborot kommunikativ texnologiyalarning madaniyatga ta'siri. Muhandislik madaniyati: xususiyatlari, evolyusiyasi, istiqbollari. Madaniyatning biosferik konsepsiyasi. Axborotlashgan jamiyat madaniyati. Ekran madaniyati. Internet tizimi axborot makonidan foydalanish madaniyatida bilimning kuchi. Madaniyatning olamshumulligi va insoniyatning madaniy birligi. Madaniy axborotlashuv jarayoni.

Globalashuv jarayonida madaniyatga tahdidlar: "ommaviy madaniyat"

"Ommaviy madaniyat" tushunchasi va uning mazmuni. Sharqona madaniyat va "ommaviy madaniyat" ko'rinishlari. Globalashuv jarayoni va milliy ma'naviyat. Ommaviy madaniyatning strukturaviy – funksional tahlili. Ommaviy madaniyatning ijtimoiy asosi va tuzilishi. Ommaviy madaniyatning zamonaviy shakllari va mohiyati. Moddiy, nomoddiy, milliy, umuminsoniy, lokal, etnik, submadaniyat, kontrmadaniyat, elitar va ommaviy madaniyat. Mafkuraviy tahdidlarning "ommaviy madaniyat" ko'rinishida namoyon bo'lish hususiyatlari. Global tarmoqlar orqali "ommaviy madaniyat" tahdidlarining ta'siri. Axborotlashgan texnologik davr va ma'naviy tarbiya. Internet tarmoqlari orqali kirib keluvchi salbiy ta'sirlarning oldini olishga oid xalqaro tajriba. Yoshlarda media-madaniyatni shakllantirishning asoslari. "Ommaviy madaniyat" tahdidlarining oldini olishning usullari va vositalari. "Ommaviy madaniyat" tahdidlarining oldini olishda milliy madaniyatning o'рни. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish – "ommaviy madaniyat" tahdidlarining oldini olish omili sifatida. Ommaviy madaniyat: uning ijobiy va salbiy ta'siri. Insonning ijtimoiy begonalashuvi. Madaniyatlararo ziddiyatlar. Zamonaviy madaniyatning inqirozi.

"Etika" fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati

"Etika" fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi. Axloqning paydo bo'lishi. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining axloqiy ahamiyati. Etika fanining fanlararo bog'liqligi: falsafa; estetika; dinshunoslik, huquqshunoslik, milliy g'oya, psixologiya, pedagogika, siyosatshunoslik,

ekologiya. Axloqning paydo bo'lishi haqidagi diniy, empirik va genetik konsepsiyalar. O'zbekiston mustaqilligining etika fani rivojiga konstruktiv ta'siri. XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati. Inson, uning insoniyat oldidagi burchi va mas'uliyati.

Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda axloq haqidagi qarashlar tarixi. Qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodida axloq haqidagi qarashlarning umumiy tomonlari va farqi. Qadimgi Shumer, Vavilon va Misrdagi axloqiy qarashlar. "Avesto" – Turon va Eron xalqlari axloqiy qonun-qoidalarining manbai. Qadimgi Hindi-Xitoy mintaqasidagi axloqiy qarashlar: buddaviylik, daotsizm. Konfutsiy ta'limotining axloqiy jihatlari. Qadimgi Yunon va Rumo axloqshunosligida Suqrot va Aflotun, Arastu va Epikur, Tit Lukresiy Kar, Seneka va Epiktet ijodining o'rni. O'rta asrlarda Sharq va G'arb axloqshunosligining asosiy yo'nalishlari. Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Injil – diniy axloqiy manba. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy ijodida axloq masalasi. Al-Farobiy, Ar-Roziy, Ibn Sino, Ibn Rushdning axloqiy qarashlari. Tasavvuf axloqshunosligi. Imom G'azzoliy, Jaloliddin Rumiy, Aziziddin Nasafiyning komil inson konsepsiyasi. Temur va temuriylar davrida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlar axloqiy qarashlarining ahamiyati. "Qobusnoma", "Axloqi Muhsiniy", "Bahoriston", "Guliston" pandnomalarining inson axloqiy kamolotidagi o'rni. O'rta asrlar Ovrupa axloqshunosligida cherkov aqidalarining ustuvorligi: Foma Akvinskiy, Avgustin Blajenniy. Uyg'onish davri axloqiy ta'limotlari: Valla, Monten, Makiavelli.

Yangi va eng yangi davr axloqshunosligi. Yangi davr axloqshunosligidagi ratsional va sensual yo'nalishlar: Spinoza, Lokk, Sheftsberi. Olmon mumtoz axloqshunosligi: Kant, Shelling, Gegel, Feyerbax. Irratsionalizm namoyondalarining axloq falsafasi: Kirkegard, Shopenhauer, Nisshe. XIX - XX asr rus mumtoz axloqshunosligi: V. Solovyov, N. Losskiy, I. Ilin. N.

Berdyayev qonun etikasi, tavba etikasi va ijod etikasi haqida. Z.Freyd va E.From psixoanalizi, J.P.Sartr ekzistensializmi, M.Gandining g'ayri zo'ravonlik axloqshunosligi, K.Yaspersning hayotga ehtirom axloq falsafasi, A.Shveyser universal etika asoschisi. M.Z.Qutqu va M.A.Jo'shanning yangi tasavvufchilik axloqshunosligi. Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining axloqiy qarashlari: Ahmad Donish, Abay va Anbar Otin. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", Abdurauf Fitratning "Oila va oilani boshqarish xususida" nomli asarlarining axloqiy mohiyati. Sho'rolar davri axloqshunosligi. Mustaqillik davrida yangi axloqiy tafakkurning shakllanishi.

Etika fanining asosiy kategoriyalari, tamoyillar va me'yorlar. Etika kategoriyalarining o'ziga xos xususiyatlari. Buyuk mutafakkirlar etika kategoriyalari haqida. Muhabbat – axloqshunoslikning eng asosiy kategoriyasi. Muhabbatning turlari: Vatanga, millatga, ota-onaga, farzandga, insoniyatga, go'zalikka muhabbat. Muhabbat va nafrat. Ezgulik va yovuzlik; yaxshilik va yomonlik; adolat va adolatsizlik; burch va mas'uliyatsizlik; vijdon va vijdonsizlik; nomus va benomuslik; baxt va baxtsizlik; haqiqatparvarlik va yolg'onchilik, hayotning ma'nosi, axloqiy ideal tushunchalari.

Axloqiy tamoyillar va ularning shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi. Axloqiy tamoyillarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari. Vatanparvarlik; insonparvarlik; erkparvarlik; fidoiylilik; ziyolilik; mehnatsevarlik; tinchlikparvarlik; jo'mardlik; o'zbekchilik; mehmondo'stlik. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Axloqiy me'yorlar: halollik va nopoklik; to'g'rilik va egrilik; rostgo'ylik va yolg'onchilik; insoflilik va insofsizlik; xushfe'llik va badfe'llik; shirinsuxanlik va qo'pollik; kamtarinlik va maqtanchoqlik; vafo va xiyonat; sadoqat va sotqinlik; mas'uliyat va loqaydlik; oriyat va buzuqlik.

Nikoh, oila va davlatning axloqiy asoslari. Nikoh eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Buyuk mutafakkirlar oilaning muqaddasligi haqida. Nikohda muhabbatning zaruriyligi. Nikohning qonuniy va diniy asoslari. Oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta'siri, erkak va ayolning o'rni. Oila sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati va burchlari; ajralish va uning oqibatlari. Oilada yoshlar va qariyalarning huquqlarini himoya qilishda davlatning roli. Oilaviy munosabatlarga noan'anaviy yondashuvlar: bir jinsli nikohlar, nikohsiz oilalar va ularning oqibatlari. Davlatning axloqiy mohiyati. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilinishining ahamiyati. Oila shartnomasining axloqiy jihatlari.

Muomala madaniyati va zamonaviy axloq

Muomala madaniyati – axloqiy madaniyatning tarkibiy qismi. Muomala odobining ijtimoiy-tarixiy ahamiyati. Muomala odobi va uning axloqiy madaniyatda namoyon bo'lishi. Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi. Asosiy axloqiy qadriyatlar: xususiy axloqiy qadriyatlar; universal axloqiy qadriyatlar; mintaqaviy axloqiy qadriyatlar. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi; kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati. Insonning kasbiy odobi: olim odobi, jurnalist odobi, huquqshunos odobi, shifokor odobi, pedagog odobi, muhandis odobi, tadbirkor va savdo xodimi odobi va h.k. Shaxs axloqiy kamolotida ta'lim va tarbiyaning o'rni. Bilim – shaxsni maqsadga yo'naltiruvchi kuch: kundalik bilim, shaxsiy bilim, diniy bilim, ilmiy bilim. Axloqiy va jismoniy tarbiya uyg'unligi. Tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari. Tana parvarishining tibbiy tarbiyadagi o'rni. Sog'lom turmush tarzining barkamol avlod axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati. San'atning shaxs axloqiy tarbiyasiga ta'siri: kino, musiqa, qo'shiq, teatr, badiiy asar. Shaxs tarbiyasiga ijtimoiy muhitning ta'siri: oila, jamoa, oilaviy tadbirlar, guruhlar. Yo'l harakati qoidalariga amal qilishning axloqiy mezonlari. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik.

Global jarayonlarning shaxs axloqiy kamolotiga ta'siri. Insonning hayot mazmuniga va o'limga munosabati: ma'naviy-ruhiy va jismoniy azob. Ijtimoiy muhofaza – axloqiy zaruriyat. Bioetika – amaliy etikaning nazariy asosi. Evtanaziya: aktiv va passiv evtanaziya. Klonlashtirish, transplantatsiya, ksenotaransplantatsiya (insonga hayvon organi va to'qimalarini o'tkazilishi) va

donorlik diniy etika nuqtai nazaridan. Etikaning zamonaviy muammolariga diniy va ilmiy yondashuvlar.

Estetika: faoliyat turi va munosabatlar

“Estetika” - nafosatni o‘rganuvchi qadimiy fan. “Estetika” fanining obekti va falsafiy mohiyati. Dunyoni estetik his qilishga mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlar. “Estetika” haqidagi qarashlar tarixi. “Estetika” va ijtimoiy fanlarning o‘zaro aloqadorligi: falsafa, etika, tarix, milliy g‘oya, pedagogika, psixologiya, ma’naviyat asoslari, dinshunoslik, iqtisodiyot, ekologiya, sotsiologiya, tabiiy fanlar. “Estetika”ning strukturasi. Estetik anglash, estetik munosabat va estetik faoliyat. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri. Insoniyat tarixida estetik anglash, munosabat va faoliyatning talqini. Estetik bilish va estetik qadriyatlar mutanosibligi. Estetik anglashning asosiy elementlari: estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuyg‘u, estetik did, estetik baho, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar. Shaxs estetik ehtiyoji. Shaxs estetik ideali. Estetik munosabatning o‘ziga xos xususiyatlari. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko‘rinishlari. Estetik faoliyat mehnatning o‘ziga xos turi. Estetik faoliyatning ijodiy xarakteri. Mehnat, o‘yin va san’atning o‘zaro munosabatlari. Estetik faoliyatning turlari: xalq ijodi va professional ijodiy faoliyat, badiiy faoliyat va uning estetik tabiati, ilmiy faoliyat, diniy faoliyat, ijodiy faoliyat, texnik faoliyat.

Estetikaning asosiy kategoriyalari

“Estetika” kategoriyalarining falsafiy mazmuni va mohiyati. Falsafa tarixida estetika kategoriyalari haqidagi tasavvurlarning xilma-xilligi. Go‘zallik estetikaning asosiy kategoriyasi. Estetik tafakkur tarixida go‘zallikka munosabat. Go‘zallik haqidagi tasavurning o‘zgaruvchanligi. Go‘zallikning san’atda namoyon bo‘lishi. Go‘zallik va manfaat. Go‘zallik va uning muqobillari: hunuklik, badbasharalik, beo‘xshovlik, nomutanosiblik. Ulug‘vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati. Estetik tafakkur tarixida ulug‘vorlik haqidagi qarashlarning o‘ziga xos jihatlari. Ulug‘vorlikning olamni estetik idrok etishga ijobiy ta’siri. Ulug‘vorlikning ko‘rinishlari: tabiatdagi ulug‘vorlik, jamiyat ulug‘vorligi, inson ulug‘vorligi. Ulug‘vorlikka miqdor va miqyosning ta’siri. Ulug‘vorlikning san’atda namoyon bo‘lishi. Ulug‘vorlikning tubanlik, xudbinlik, sotqinlik bilan ziddiyati. Fojeaviylik (tragediya) kategoriyasi. Fojeaviylikka munosabatning turlari. Fojeaviylikning namoyon bo‘lish shakllari: jamiyat hayotida; inson faoliyatida; san’atda; badiiy asarda. Fojeaviylik va estetik ideal. Fojeaviy qahramon. Fojeaviy jarayon va unga estetik munosabat. Forig‘lash – katarsis fojeaviy asarning xususiyati sifatida. Kulgililik kategoriyasi. Estetik tafakkur tarixida kulgililikka munosabat. Kulgi va uning inson hayotidagi o‘rni. Kulgili holat. Kulgining obektlari: turmush voqealari, san’at asari, badiiy asar, suhbat mavzusi, muloqot. Kulgililikning namoyon bo‘lish shakllari: hajv, hazil, mutoyiba, kinoya, kesatiq, istehzo. Kulgi, hazil-mutoyiba va unda me’yorning zaruriyati. Komediya – san’at janri. Kulgining forig‘lantirish xususiyati. Kulgi hodisasining sog‘lom turmush

tarziga ta'siri. Kulgililikning demokratik xususiyati. Estetika kategoriyalarining o'zaro aloqadorligi. Mo'jizaviylik, hayo (ibo-hayo) va qiziqarlilik estetika kategoriyalarini rivojlantiruvchi mezon sifatida.

Estetikaning zamonaviy muammolari

Tabiat estetikasi. Insoniyat tafakkuri tarixida tabiatga estetik munosabatning zaruriyati haqidagi qarashlar. Insonning tabiatga muqobil estetik munosabatlari. Tabiatning estetik xususiyatlari. Tabiat estetik faoliyat ob'ekti. Ekologik estetikaning qadriyat maqomi. Ekologiya estetikasining axloqiy muammolari. Tabiatni estetik idrok etishning an'anaviy va noan'anaviy usuli: tabiatni asl holda idrok etish, tabiatni badiiy obrazlarda ifodalash. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'rni. Texnogen sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri. Maishiy turmush estetikasi va uning texnologiyasi. Texnika estetikasining ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni. Texnikaning inson estetik manfaatlari va faoliyati bilan bog'liqligi. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi. Dizaynning estetik xususiyatlari. Tabiat va maishiy turmush dizayni. Xalq amaliy san'ati va dizayn. San'at va uning turlari San'atning predmeti, maqsadi va vazifalari. Buyuk mutafakkirlar san'atning inson va jamiyat hayotidagi o'rni haqida. San'atning xususiyatlari: tarixiylik, ma'joziylik, demokratik, milliy va umuminsoniylik. San'atning tamoyillari: xalqchilik, haqqoniylik, ijodiylik. San'atning turlari: badiiy adabiyot, xalq amaliy san'ati, me'morchilik, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino, musiqa, estrada va sirk, qo'shiqchilik, raqs, askiya, notiqlik, badiiy suratkashlik, qiroat san'ati (badiiy o'qish); xattotlik. San'at turlarida mafkura tamoyillarining in'ikosi. San'atga estetik munosabatni shakllantirishda an'anaviylik va zamonaviylik birligi.

Sog'lom turmush tarzi estetikasi. Sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda tarbiya shakllarining uzviyligi: estetik tarbiya, axloq tarbiyasi, jismoniy tarbiya. Sog'lom turmush tarzi estetikasi tamoyillariga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar. "Go'zal muhitda yashash - oliy ne'mat" tamoyilining estetik mazmuni. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari: - elektron axborot vositalari, san'at, badiiy adabiyot. Shaxsni estetik tarbiyalashda fan, ta'lim va madaniyatning o'zaro bog'liqligi. Mehnat - turmush estetikasining muhim omili. Insonda xulq go'zalligini shakllantirishning zamonaviy ko'rinishlari. Didlilik va farosatlilik – yuksak madaniyat belgisi. Farosatsizlik shaxs kamolotidagi illat. Inson tabiiy go'zalligi bilan estetik didning mutanosibliigi: orastalik, bachkanalik. Shaxs va jamiyat estetik madaniyatining muhim jihatlari. Jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotining estetik madaniyat shakllanishiga ta'siri. Shaxs va jamiyat estetik madaniyatining dialektik aloqadorligi. Estetik madaniyat yuksalishining milliy va umuminsoniy jihatlari. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar estetik didiga ta'siri. Estetik ravnaq va uning estetik ehtiyoj hamda estetik did bilan dialektik aloqadorligi. Sport va uning ma'naviy-estetik jihatlari; sport estetikasining zamonaviy ahamiyati. Inson tanasi va turmush tarzini go'zallashtirishda sportning ta'siri.

Texnogen sivilizatsiya - estetik faoliyat va estetik didni shakllantirishning muhim omili. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va go'zallashtirishning estetik muammolari. Voqelikka estetik munosabatning milliy

va umumbashariy ahamiyati. Estetik qadriyatlar – barqarorlikni ta'minlovchi omil. "Dunyoni go'zallik qutqaradi" shiorining global ahamiyati. Olamni estetik anglashda jamiyat axborotlashuvining roli. Axborot estetikasining o'ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy-siyosiy, badiiy-ijodiy, ma'naviy-axloqiy jarayonlar bilan bog'liqligi. Reklamaning estetik xususiyatlari. Reklama faoliyatiga estetik qonuniyatlarning ta'siri. Reklamalardagi g'ayriestetik holatlar va ularning ko'rinishlari. Reklamaning estetik g'oyasida milliylik va umumbashariylik dialektikasi.

